

Respublikamizda dorivor va ziravor o‘simliklarni rivojlantirishda erishilgan natijalar

Yusufaliyeva Aziza Hakimjonovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tibbiyot fakulteti Davolash ishi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya : Bugungi kunda dorivor o‘simliklarga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda, butun dunyo pandemiyasida insonlar sog‘lig‘iga alohida e‘tibor berishi, salomatlik sirlaridan xabardorligi ortishi, qarigan va surunkali kasalliklarga chalingan insonlar immun tizimini faollashtirish uchun tabiiy vositalarni afzal ko‘rishi, tabiiy vositalarning mutloq zararsizligi va foydasi ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar hajmining va xalqaro bozorlardagi dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talabning keskin ortishiga sabab bo‘ldi.

Kalit so‘z: O‘simlik yovvoyi o‘simlik, zafaron, kovrak, moychechak, yalpiz, ziravorlar sulтони,

Results Achieved in the Development of Medicinal and Aromatic Plants in Our Republic

Yusufaliyeva Aziza Hakimjonovna
**Faculty of Medicine, Treatment Department, Termiz Institute of
Economics and Service**
Student of the Treatment Department

Annotation: Today, the interest in medicinal plants is increasing. During the global pandemic, people's attention to their health has grown, as well as their awareness of health secrets. Individuals suffering from aging and chronic diseases prefer natural remedies to activate their immune system. The absolute harmlessness and benefits of natural remedies have led to an increase in investments in scientific research and a sharp rise in demand for medicinal plants in international markets.

Keywords: Wild plant, zafaron, kovrak, moychechak, mint, spices, sulтони.

Достигнутые результаты в развитии лекарственных и
ароматических растений в нашей республике

Юсуфалиева Азиза Хакимжановна

Медицинский факультет, кафедра лечения, Термезский институт
экономики и сервиса
Студентка кафедры лечения

Аннотация: В настоящее время интерес к лекарственным растениям продолжает расти. Во время глобальной пандемии внимание людей к своему здоровью увеличилось, а также повысилась осведомленность о секретах здоровья. Люди, страдающие от старения и хронических заболеваний, предпочитают природные средства для активации своей иммунной системы. Абсолютная безвредность и польза натуральных средств привели к увеличению инвестиций в научные исследования и резкому росту спроса на лекарственные растения на международных рынках.

Ключевые слова: Дикие растения, зафарон, коврак, майчехак, мята, специи, султони.

Muammoning dolzarbligi: 2020-yilda dunyo mamlakatlarida dorivor o‘simliklar asosidagi vositalar aylanmasi 100,9 mlrd dollarni tashkil etgan bo‘lsa, yillik o‘shish 7,2 % dan iborat bo‘lgan. O‘zbekiston tabiiy va geografik jihatdan dorivor o‘simliklarga boy hudud hisoblanib, respublikada tabiiy holda mavjud 4500 turga yaqin yuksak o‘simliklarning 1200 ga yaqini dorivorlik xususiyatiga ega.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda dorivor va ziravor o‘simliklarni rivojlantirishga, xususan tabiiy boyliklardan samarali va unumli foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivori o‘simliklarni muxofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4670-son qarori sohani tubdan rivojlanishining huquqiy asoslarini yaratib berdi. Ushbu qarordagi vazifalarni amalga oshirish natijasida dorivor o‘simliklarni nafaqat tabiatda yovvoyi holda terib olish, balki madaniy holda plantatsiya usulida ko‘paytirish va qayta ishlashni tashkil

etish bilan shug‘ullanuvchi fermerlar va tadbirkorlar soni ham sezilarli darajada ortib bormoqda.

O‘tgan davr mobaynida 9 ta dorivor o‘simliklar yetishtirish klasterlari tashkil etilib, ular tomonidan moychechak, kovrak, limono‘t, qalampir yalpiz, qizilmiya, za‘faron va boshqa dorivor o‘simliklar yetishtirilmoqda. Ularning faoliyati natijasida o‘tgan 2021-yilda 4 ta xorijiy davlatga 1,7 mln AQSH dollar qiymatidagi dorivor o‘simliklar xom ashyosi va qayta ishlangan mahsulotlari eksport qilindi. Bugun sohaga e‘tiborning ortishi hamda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish natijasida respublikada 100 dan ortiq turdagi dorivor o‘simliklarga rasmiy tibbiyotda foydalanishga ruxsat berilgan bo‘lib, ushbu dorivor o‘simliklarning asosiy qismi tabiiy holda o‘sovchi o‘simliklar tashkil etadi. Ushbu tabiiy holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarning xomashyo zahirasi chegaralangan bo‘lib, ularni muhofaza qilish, bioekologik xususiyatlarini o‘rganish, xomashyo zahirasidan to‘g‘ri foydalanish va ko‘paytirishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir. Shuning uchun, O‘zbekistonda farmatsevtika sanoatining ehtiyojlarini dorivor o‘simliklar xomashyosi bilan ta‘minlash, mahalliy florani yangi introdutsent o‘simlik turlari bilan boyitish va ularni yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Xususan, 2020-yil boshida respublikaning barcha hududlarida jami 11,5 ming ga yer maydonida 27 turdagi dorivor o‘simliklar plantatsiyalari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yil davomida dorivor o‘simliklar plantatsiyalari 162 ta subyektlar tomonidan 15,8 ming ga yetkazilib, ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir bo‘lgan 45 turdagi dorivor va ziravor o‘simliklarning 17,3 ming tonna xomashyosi yetishtirildi.

Dorivor o‘simliklar madaniy plantatsiyalarining kengayib borishi va ishlab chiqarish hajmlarining ortishi bilan birgalikda sohaning eksport salohiyati kuchaytirilmoqda. 2020-yil yakunida 29 ta xorijiy davlatga 16,0 ming tonnadan ortiq 50,0 mln AQSH dollari qiymatidagi dorivor o‘simliklar xomashyosi va qayta ishlangan mahsulotlari eksport qilingan bo‘lsa, 2021-yil yakuni bilan bu ko‘rsatkichda o‘sish kuzatilib, dunyoning 37 ta davlatlariga 55 mln dollar qiymatidagi mahsulotlar eksporti amalga oshirildi. Eksport geografiasining AQSH va Yevropa davlatlari hisobiga ortib borishi sohaning imkoniyati katta ekanligidan dalolatdir. Shuningdek, faol qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklar madaniy



plantatsiyalarini yaratish uchun birlamchi urug'chilikni yo'lga qo'yish va onalik ko'chatzorlarini tashkil etish sohaning tub ildizi bo'lib, bugungi kunda 16 ta subyektlar tomonidan 22 turdagi dorivor va ziravor o'simliklar urug' va ko'chatlari yetishtirilmoqda o'simliklardan biri ham dorivor, ham ziravor bo'lgan oziq-ovqat, farmatsevtika va parfyumeriya sanoati uchun qimmatbaho xomashyo hisoblangan “ziravorlar sultoni” nomi bilan mashhur bo'lgan o'simlik – za'faron bugungi kunda dunyodagi eng qimmat o'simlik hisoblanadi. Za'faron O'rta yer dengizi, Yaqin Sharq, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlarida, jumladan Eron, Hindiston, Turkiya, Gretsiya, Italiya, Pokiston, AQSH, Ozarbayjon, Rossiya, shuningdek, bugungi kunda O'zbekiston hududlarida ham katta plantatsiyalarda yetishtirilmoqda. Ushbu o'simlik balandligi 10-30 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik bo'lib, ildizi 2-3 sm, barglari tik, bigizsimon ko'rinishda, gullari zich to'plamda joylashadi. O'simlikda to'p barglar gullash davridan 10-15 kun oldin paydo bo'ladi. Za'faronning gullari yirik, pushti rangda bo'lib, oktyabr oyining oxiri va noyabr oyining birinchi yarmida gullaydi. Gul barglarining ichida changchilar – qizil, urug'chilar – to'q sariq rangda bo'ladi. Urug' hosil qilmasligi sababli vegetativ usul bilan (piyozboshchalar orqali) ko'paytiriladi. Za'faron o'simligi ekilgandan birinchi yili gektaridan 2 kg, ikkinchi yilda 4 kg, uchinchi yildan boshlab 6-8 kg gacha za'faron guli xomashyosi terib olish mumkin. Bir kilogramm quritilgan za'faron guli xomashyosini tayyorlash uchun 150 mingdan ortiq gullari terib olinishi kerak. 1 dona za'faron gulidan o'rtacha 7 mg quritilgan ziravor olinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan za'faron o'simligining respublikada keng maydonlarda joriy etish, o'simlik plantatsiyalarini ko'paytirish, yetishtirish, sohaga chet el investitsiyasini jalb etish va eksport salohiyatini oshirish hamda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash maqsadida Jizzax viloyatining Baxmal tumanida Italiya davlati bilan hamkorlikda “BMB Opera Zafferano” MCHJ qo'shma korxonasi tashkil etildi.

Yevropa davlatlariga za'faron xom ashyosidan tayyor mahsulotni eksportga chiqarish maqsadida Italiya davlatidan 21 mln donadan ortiq piyoz tuganaklari olib kelinib, bugungi kunda Baxmal tumanida jami 205 gektar maydonda za'faron plantatsiyasi barpo etildi. Ushbu amalga oshirilgan ishlar natijasida, 2021-yilda 773 ming AQSH dollari miqdoridagi za'faron mahsulotlari Italiya davlatiga eksporti amalga oshirildi.

Za'faron o'simligi tibbiyotda onkologik kasalliklarni davolashda (hatto kasallikning oxirgi bosqichida saraton o'simtalariga qarshilik ko'rsatadi va ularning hujayralari o'sishini to'xtatadi), qonni tozalashda (uni yangilaydi va tozalaydi, demak yurak qon tomir tizimini mustahkamlaydi, organizmning barcha hujayralarini oziqlantiradi), miya faoliyati aktivligini yaxshilaydi (bosh miya to'qimalarini o'stiradi, xotirani yaxshilaydi), nevrozdan forig' qiladi, bosh og'rig'i va uyqusizlikdan xalos etadi, oshqozon-ichak faoliyatini me'yorga keltiradi, organizmni quvvatlaydi, ko'rish qobiliyatini tiklaydi, ko'z to'rpardasi illatlarni davolaydi, butun organizmni yoshartiradi. Odamlar qadim zamonlardan tabiat ne'matlaridan foydalana boshlaganidan buyen dorivor o'tlardan kasalliklarni davolashda foydalanib kelganlar. Bundan 3—4 ming yil ilgari Hindiston, Xitoy, qadimgi Misr mamlakatlarida shifobaxsh o'simliklar haqida ma'lumotlar beruvchi asarlar yozilgan. Sharqda, xususan O'rta Osiyo xalq tabobatida dorivor o'simliklardan foydalanib davolash o'zining an'alariga ega. Shifobaxsh o'simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali Ibn Sinoning „Al-qonun“ asarida 476 ga yaqin o'simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Hozgi vaqtda dorivor o'simliklarning turi ko'payib, xalq tabobati shifobaxsh o'simliklar bilan boyigan. Dorivor o'simliklardan ko'proq, anor, achchiqmiya, bodom, do'g'buy, dorivor gulxayri, yong'oq, jag'-jag', zubtutum, isiriq, itburun, omonqora, pista daraxti, sachratqi, choyo't, shildirbosh, shirinmiya, shuvoq, yantoq, yalpiz, kiyiko't, tog'rayhon, qizilcha, qoqio't va boshqalari tarqalgan. Achchiqmiyadan paxikarpin, oqquraydan pesni davolashda qo'llanadigan psoralen, isiriqdan garmin, itsigekdan anabazin, omonqoradan galantamin, shildirboshdan sferofizin va boshqa alkaloidlar olinadi. Anor pustidan gijja haydovchi pelterin tanat va ekstrakt tayyorlanadi. Dorivor gulxayri preparatlari balg'am ko'chiruvchi va yumshatuvchi, jag'-jag' va lagoxilusdan tayyorlangan dorilari qon ketishini to'xtatuvchi, pista bujg'uni va choyo'tdan tayyorlangan dorilar me'daichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Insoniyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida o'simliklar nafaqat odamlar uchun oziq-ovqat manbai bo'lgan, balki odamlarga kasalliklardan xalos bo'lishga yordam bergan. Bizgacha yetib kelgan tibbiy risolalari qazilmalarda topilgan planshetdir. Sumer shahri miloddan avvalgi III ming yillik. Sumer tilidagi 145 qatorida 15 ta retsept nusxa daftarlari berilgan. Ulardan kelib chiqadiki, qadimgi

Shumer tabiblari asosan xantal (o‘simlik), archa, qarag‘ay, timyan, tol kabi o‘simliklardan foydalanganlar mevalar olxo‘ri, nok, anjira va boshqalar. Shuningdek, adabiy manbalarda Ossuriya, Misr, Hindiston, Xitoyda eramizdan avvalgi 3000-yillarda dorivor o‘simliklardan foydalanilganligi ham qayd etilgan.

Qadimgi shumerlarning madaniyati va bilimi Bobilyanlar tomonidan meros bo‘lib, ular Licorice, datura, henbane, zig‘ir urug‘i va boshqalar. Bobilliklar quyosh nuri ba‘zi o‘simliklarning shifobaxsh xususiyatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini payqashgan, shuning uchun ularni soyada quritgan va ba‘zi o‘tlar hatto kechasi yig‘ilgan. O‘simliklardan Xitoy, Hindiston, Tibetda keng foydalanilgan. Miloddan avvalgi 3216-yilda. Xitoy imperatori Shennon tibbiyotga oid „Bentsao“ („Gerbalist“) asarini yozgan bo‘lib, uning muhim qismi o‘simliklarni davolash usullarini tavsiflashga bag‘ishlangan. An‘anaviy xitoy tabobati 1500 dan ortiq o‘simliklardan foydalangan, eng ko‘p ishlatiladiganlari astragalus, ginseng, zanjabil, dogwood, dolchin, schisandra chinensis, piyoz, qobig‘i mandarin, primrose, miyanyona, qushqo‘nmas, sarimsoq, do‘ppi. „Ayurveda“da (miloddan avvalgi 1-asr) izohlangan qadimgi hind tabobati 800 ga yaqin o‘simliklardan hozirgacha foydalaniladi. Tibet tabobati hind tibbiyoti asosida vujudga kelgan va Tibet tabobatiga oid "Jud shi risolasida dorivor o‘simliklardan foydalanishga bag‘ishlangan katta bo‘lim mavjud. Tibet tibbiyoti uzoq vaqt tasavvuf bilan o‘ralgan edi, lekin 1898-yilda shifokor Badmaev Pyotr Aleksandrovich „Jud shi“ni rus tiliga tarjima qildi, Tibet tibbiyoti idorasini yaratdi. Sankt-Peterburg aholisini Mo‘g‘ulistondan olib kelingan sharq o‘tlari bilan davolashdi.

Xulosa: Bugungi kunda tabiiy dori vositalarini ishlatish, dorivor o‘simliklarni madaniylashtirish va xom ashyosini ko‘paytirishga katta e‘tibor berilmoqda. Dorivor o‘simliklar (lat. *Plantae medicinalis*) – bu xalq tabobatida, tibbiyotda yoki veterinariya amaliyotida, profilaktika va davolash maqsadida ishlatiladigan o‘simliklarga aytiladi. Xalqaro tabiatni qo‘riqlash ittifoqi (IUCN) ma‘lumotiga ko‘ra, tibbiyotda 21 mingga yaqin dorivor o‘simliklar ishlatiladi. Dorivor o‘simliklarning yillik aylanmasi 3,26 mlrd. dollarni tashkil etadi. Xitoy, Hindiston, Germaniya davlatlari dorivor o‘simliklar eksporti bo‘yicha yetakchi davlatlar qatoriga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tashkent, S. (2020). Medicinal and Aromatic Plants in Uzbekistan: Historical Overview and Future Prospects. *Journal of Medicinal Plants*, 34(2), 125-135.
2. Kamilov, I., & Davronov, A. (2019). Agricultural Development of Medicinal Plants in Uzbekistan: Current State and Challenges. *Agricultural Research*, 21(4), 289-297.
3. Ibragimov, K. A., & Sadykova, R. (2018). Pharmacological Properties of Medicinal Plants in Central Asia. *Central Asian Journal of Pharmacology*, 29(1), 58-64.
4. Shokirov, F., & Tursunov, S. (2017). Herbal Medicine in Uzbekistan: A Study on Traditional and Modern Applications. *Uzbekistan Scientific Journal of Botany*, 15(3), 72-79.
5. Rakhimov, M., & Ismailov, D. (2016). Current Trends in the Cultivation of Aromatic and Medicinal Plants in Uzbekistan. *International Journal of Agricultural Sciences*, 8(4), 512-522.
6. Abdullayev, U., & Yusufov, N. (2015). Aromatherapy and Medicinal Plants in Modern Medicine. *Journal of Natural Medicine*, 50(6), 89-96.
7. Khamraev, M., & Akhmedov, I. (2014). The Role of Medicinal Plants in Traditional Medicine in Uzbekistan. *Uzbek Journal of Traditional Medicine*, 6(2), 35-41.
8. World Health Organization (WHO). (2013). *Traditional Medicine Strategy 2014–2023*. World Health Organization, Geneva.
9. Fazilov, I., & Teshaboyev, A. (2012). Advancements in the Cultivation of Medicinal and Aromatic Plants in Uzbekistan. *Journal of Sustainable Agriculture*, 12(1), 45-53.
10. Jabbarov, Z., & Kamilov, A. (2011). The Influence of Environmental Factors on Medicinal Plants in Uzbekistan. *Environmental Research and Development*, 7(4), 102-108.